Uyushgan qimmatli qogʻozlar bozorining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati, rivojlanishi borasida yaponiyalik olim Y.Nobuyoshi oʻz ilmiy ishlarida uyushgan qimmatli qogʻozlar bozorining rivojlanishida birjalarning ahamiyati, bu borada Tokio fond birjasining bugungi kunda rivojlanish tendensiyalarini tahlil etib, uyushgan qimmatli qogʻozlar bozorida yangi raqamli instrumentlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi [2].

Shuningdek, yana bir guruh yaponiyalik olimlardan Y. Nishumura, Y. Sutsui esa oʻz ilmiy tadqiqotlarida uyushgan xalqaro qimmatli qogʻozlar bozorining rivojlanishini tahlil etib, xalqaro fond birjalari faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy muammolarni koʻrib chiqqan [3].

Xorijlik tadqiqotchi olimlardan B. Nejla Tunis fond birjasining tashkil etilishi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini tahlil etish orqali uyushgan qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solishda fond birjasining ahamiyati va samarasini ilmiy ishlarida aks ettiradi. Uning fikricha, uyushgan qimmatli qogʻozlar bozori – yaxlit shakllangan va "ishonchli" moliyaviy resurslarni jalb etish uchun tashkil etilgan moliya muassasasidir" [4].

Shuningdek, bir qancha xorijlik olimlardan Yu. Hsing "Box-Cox" modeli orqali AQSHda uyushgan qimmatli qogʻozlar bozorini [5], D. Stauffer, D. Sornetti qimmatli qogʻozlar bozorining tashkillashganlik darajasi va uning statistik shaffofligini "Cont-Bouchaud" modeli orqali tahlil etgan [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya va deduksiya, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi fiklarni umumlashtirgan holda, qimmatli qog'ozlar bozori va uning tashkillashgan ko'rinishi hisoblangan uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishi borasidagi xorijlik olimlarning ilmiy-nazariy qarashlarini quyidagi

1-jadvalda ifodalaymiz. Bu borada AQSH, Fransiya kabi davlatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar muhim ilmiy asoslardan hisoblanadi.

1-jadval: Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining ilmiy-amaliy asoslari yuzasidan xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari

| Xorijiy iqtisodchi olimning ismi-sharifi | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori (birja)ga oid nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot ishlari mazmuni |
|---|---|
| Y. Nobuyoshi<br>Nagoya universiteti (Yaponiya) | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida birjalar asosiy muassasa bo'lib, ular yirik investitsion imkoniyatlarni transformatsiyalash uchun tashkil etilgan moliya institutlari hisoblanadi. |
| D. Stauffer<br>Kologne universiteti (Germaniya) | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining tashkillashganlik darajasi va uning statistik shaffofligini ta'minlash orqali xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini oshirish mumkin. "Cont-Bouchaud"modeli asosida bozordagi statistik ko'rsatkichlarni tahlil etib, bozorning kelgusidagi dinamik o'zgarishida klaster tuzish, prognozlarni ishlab chiqish muhim o'ringa ega. |
| D.Sornette<br>Найс-София Антиполис университети, (Франция) | |
| Yu Hsing<br>Janubiy-Sharqiy Luiziana universiteti (AQSH) | "Box-Cox" modeli orqali AQSHda uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Olimning fikricha, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori (fond birjalari) iqtisodiyotning o'lchov vositasi sifatida kengayib bormoqda, kelgusida moliyaviy resurslarni ushbu bozor orqali to'liq jalb etish ijobiy samaraga olib keladi. |
| Andrew Ellul<br>Indiana universiteti (AQSH) | Qimmatli qig'ozlar bozoridagi savdolar birjada tashkillashgan, uyushgan holda bo'ladi. Ushbu uyushgan bozorlardagi moliyaviy resurslarning likvidlik darajasi birmuncha yuqori va ishonchli bo'ladi. Mazkur bozorda fond birjalari alohida ahamiyatlidir. Birjalar mazkur bozorlarning asosiy richaglari sifatida tan olinadi. (Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida London fond birjasining uyushgan qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni va uni rivojlanib borish tendensiyalari tahlil etilgan) |
| Ian Tonks<br>Bristol universiteti (Buyuk Britaniya) | |
| Hyun Song Shin<br>Xalqaro Hisob-kitoblar banki | |
| D. Grigoreva<br>Rossiya Xalqlar do'stligi universiteti (Rossiya Federatsiyasi) | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori (fond birjasi) moliyaviy resusrlarni samarali harakatlantiruvchi vosita bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarida ushbu bozorning boshqa davlatlarga nisbatan rivojlanishida turli to'siqlar mavjud. Bu moliyaviy resurslarni jalb etish mexanizmi bilan bog'liq jarayondir. Inflyatsiya va valyuta kurslari ham mazkur bozorga sezilarli kuchli ta'sir o'tkazmoqda. |

Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi iqtisodchi olimlar nafaqat o'zining ilmiy izlanishlarida mazkur bozorning kelib chiqishi va uning dolzarbligiga e'tibor qaratibgina qolmasdan, uning iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rnini turli iqtisodiy tahlil modellari orqali ko'rib chiqqanligi va zaruriy xulosalarni shakllantirganliklarini guvohi bo'lamiz.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarida uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi, xususiyatlari, uning rivojlanish bosqichlari hamda mazkur bozorning institutsional tuzilmasi sifatida birjalarning shakllanishi va infratuzilmasini jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash, O'zbekistonda birja faoliyatining dinamik tahlili kabi dolzarb masalalar qamrab olingan.

2-jadval: Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining ilmiy-amaliy asoslari yuzasidan mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari

| Xorijiy iqtisodchi olimning F.I.Sh. | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori (birja)ga oid nazariy qarashlar, ilmiy tadqiqot ishlari mazmuni |
|---|---|
| I. Butikov | Qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori – bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lish sohasi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini ushbu bitimlar ishtiroklari uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solingan"ligini qayd etib o'tadi. |
| Sh. Shoxa'zamiy | Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalarining faoliyat tamoyiliga asosiy e'tibor qaratgan.<br>Uning fikricha, barcha ishtirokchilar (professional ishtirokchilar)ga teng sharoit yaratib beruvchi, aniq reglament va qat'iy belgilangan qoidalar asosida harakat qiluvchi, tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligini ta'minlovchi tamoyillarga ega yaxlit infratuzilmaviy savdo maydonini birjalar sifatida e'tirof etish mumkin |
| A. Vaxabov,<br>N. Jumayev | Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida qimmatli qog'ozlar bozorida kutazilgan "puf effekti"ning yuzaga kelish sabablarini rivojlangan davlatlardagi ko'rsaktichlar orqali tahlil etilgan. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda ushbu inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish borasida tavsiyalar berilgan. |
| M. Xamidulin | Ilmiy ishlarida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida korporativ strategiyalarni samarali amalga oshirish uchun korporativ boshqaruvning moliyaviy mexanizmi vositalarini kompleks qo'llashning dolzarb muammolari ko'rib chiqilgan. Kapital bozoridan moliyaviy resurslarni jalb qilish samaradorligini oshirishda korporatsiyalarning ichki xususiyatlarining ta'siriga alohida ye'tibor qaratiladi; davlatning korporativ sektorda ishtirok yetish shakllari va usullari; dividend siyosatini shakllantirish tamoyillari; kapital tuzilmasini boshqarish usullari; yuqori darajada birlashtirilgan korporativ korporativ tuzilmalarni yaratishda muhim sinergetik ta'sirni ta'minlash. |
| A. S. Axmedov | O'zbekiston bank tizimida aktivlarni sekyuritizatsiyalash doirasida emissiya qilingan moliyaviy derivativlar kredit riskini boshqa shaxsga o'tkazish imkonini beruvchi vositalar ekanligi asoslangan; bank aktivlarini sekyuritizatsiyalash jarayonida yagona maqsadli yo'nalishga ega bo'lgan subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zida namoyon etuvchi, sekyuritizatsiyalash jarayonining tuzilmaviy mexanizmi ishlab chiqilgan; |
| X. M. Akromov | O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri o'rganilgan. |
| F. I. Mirzayev | Moliya bozori operatsiyalari risklari qimmatli qog'ozlar misolida tahlil qilingan. |
| F. Muxamedov | Ilmiy ishlarida xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining moliyaviy globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi roli tahlillar natijasida yoritib berilgan. Shuningdek, fond birja savdolarida mijozlarga masofadan turib savdo tizimiga to'g'ridan to'g'ri kirish imkoniyatini yaratish asosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish tizimi takomillashtirilgan. |
| J. I. Karimqulov | O'zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari ilmiy tadqiq etilgan. |
| S. E. Elmirzayev | Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi, jumladan qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy xusustyalari tavsilangan. Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokichlari faoliyati tahlil etilgan. |
| A. A. Shomirov | Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilgan |
| Q. R. Chinqulov | Aksiyadorlik jamiyatlarini korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan |
| U. Xalikov | O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarida mamlakatimiz fond bozoridagi moliyaiviy vositalarning tarkibi va qo'llanilish dajarasini kengroq tasniflagan. |
| Sh. Sultonov | O'z ilmiy ishlarida, AJlari o'rtasida teng raqobat muhitini yaratish maqsadida, davlat ulushi bor korxonalar sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan qismini davlat budjetiga o'tkazishni amaliyotga joriy qilishni taklif etgan |

Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Jumladan, respublikamizning iqtisodchi olimlaridan I. Butikovning fikricha, "qimmatli qog'ozlar bozori – bu jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va so'ndirilishi bilan bog'liq munosabatlari tizimidir" [1].

O'z navbatida, I. Butikov qimmatli qog'ozlar bozorini 2 yirik turga, ya'ni uyushgan va uyushmagan qimmatli qog'ozlar bozoriga ajratadi. O'z tadqiqotlarida olim, qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori – bu qimmatli

qog'ozlarning muomalada bo'lish sohasi bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini ushbu bitimlar ishtirokchilari uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan belgilangan tadbirlar va shartlar bilan tartibga solingan"ligini [1] qayd etib o'tadi. Shuningdek, olimning ta'kidlashicha, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional tuzilmasi sifatida "klassik ko'rinishdagi fond birjasi – bu professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo'lib, u savdo-sotiqning hamda qimmatli qog'ozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib, tamoyillariga ega hisoblanadi. Fond birjalari tarixan ma'lum ma'noda qimmatli qog'ozlar bozorining o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchlari hisoblanadi. Ahamiyatlisi, mazkur fikrni davom ettirib, olim "Birja – uyushgan bozor. Butun jahonda birjaga faqat barqaror moliyaviy ahvolga va rivojlanish istiqbollariga ega bo'lgan tuzilmalarning qimmatli qog'ozlariga erkin ruxsat etiladi", - deya uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tuzilmasi sifatida birjalarga kengroq yondashgan. Bundan tashqari, yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda I. Butikov fond birjasi – qimmatli qog'ozlarning alohida tarzda uyushgan bozor ekanligi, u uzoq rivojlanish tarixiga egaligi hamda to'rt yuzdan ortiq yil mobaynida qimmatli qog'ozlar birja savdosini tashkil etish shakli ham, birjaning jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi roli ham o'zgarganligini alohida ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqotlar olib borayotgan olimlardan biri professor Sh.Shoxa'zamiy uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etuvchi fond birjalarining faoliyat tamoyiliga asosiy e'tibor qaratgan. Uning fikricha, barcha ishtirokchilar (professional ishtirokchilar)ga teng sharoit yaratib beruvchi, aniq reglament va qat'iy belgilangan qoidalar asosida harakat qiluvchi, tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligini ta'minlovchi tamoyillarga ega yaxlit infratuzilmaviy savdo maydonini birjalar sifatida e'tirof etish mumkin [7].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori shakllanishida dastlabki fond birjalarining asosiy xususiyatli jihatlari qimmatli qog'ozlar muomalasini faol tashkil etgan holda, ularning aylanuvchanligini ta'minlash uchun savdo maydonini hosil qilish, deyish mumkin. Bu borada xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining fikrlarini umumlashtirgan holda, klassik ko'rinishidagi va hozirgi zamon uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori – fond birjalarining asosiy xususiyatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin.

1. Qimmatli qog'ozlar savdolarini o'zida markazlashtirib, tom ma'noda ularni "uyushtiradi"
2. Eng maqbul qimmatli qog'ozlar savdolarga qo'yiladi, ya'ni listing talablari o'rnatiladi
3. Savdolarga birja muassasalari a'zolari bo'lgan maxsus ishtirokchilariga (professional ishtirokchilar) qatnashish huquqi beriladi
4. Undagi savdolarda savdo qilishning muayyan qoidalari, tartiblari va andozalari o'rnatiladi va ushbu qoidalarga amal qilish majburiy hisoblanadi
5. Birja faoliyatida o'zini o'zi boshqarish xususiyatining birja savdolari a'zolari tomonidan doimiy amalga oshirilishi samarali hisoblanadi
6. Global miqyosda qimmatli qog'ozlarning savdolarini yo'lga qo'yish va moliyaviy resurslarni samarali jalb etish infratuzilmasi jamlanmasi hisoblanadi

1-rasm: Uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori – fond birjalarining asosiy xususiyatlari
Manba: mualliflar tomonidan tuzilgan.

Yuqorida respublikamiz olimlari tomonidan uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tuzilmasi sifatida fond birjalari e'tirof etilganini guvohi bo'ldik.

Qolaversa, qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish sohasida mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlaridan biri hisoblangan F.Muxamedovning ilmiy ishlarida xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining moliyaviy globallashuv va jahon iqtisodiyotidagi roli tahlillar natijasida yoritib berilgan. Shuningdek, fond birja savdolarida mijozlarga masofadan turib savdo tizimiga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini yaratish asosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish tizimi takomillashtirilgan. Bundan tashqari, emitent tomonidan chiqa-

rilgan aksiyalarning kamida 15 foizi free floatni tashkil etishi asosida birjaviy qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimining listing talablari va uni o'tkazish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. Fond birjasida ilk bor IPO va SPO o'tkazilgan aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlariga oid bitimlarni "bir aksiya - bir lot" tamoyili asosida amalga oshirish va riteylga erishish taklif etilgan. Davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishni amalga oshirish va ularni joylashtirishdan tushgan mablag'larni davlat budjeti taqchilligini qoplashga va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni, shuningdek, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirish taklif etilgan; suveren obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirish taklifi berilgan [8].

Shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan U.Xalikov O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarida mamlakatimiz fond bozoridagi moliyaviy vositalarning tarkibi va qo'llanilish dajarasini kengroq tasniflagan. U o'z ilmiy ishida, fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli va yuqori daromad keltiruvchi vositalarni muomalaga kiritish, xususan, qimmatli qog'ozlar vositasi sifatida "infratuzilmaviy obligatsiya"lardan foydalanish orqali investitsiyalarni moliyalashtirishni taklif qilgan, aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investor va menejerlarni jalb etish jarayonlarini faollashtirish maqsadida ularning ustav kapitalida davlat ulushini qisqartirishning samarali yo'llari asoslangan. "Toshkent" Respublika fond birjasining xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlash maqsadida bozor muvozanatini ta'minlash tamoyillaridan foydalanish borasida qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqqan [9].

Bundan tashqari, A. Xo'jamurodov "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borishi natijasida yuqori darajadagi boshqaruv idoralari huzuridagi fond bozorini tartibga solish bo'yicha megaregulyator faoliyatini joriy etish asosida fond bozori infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish taklifini ilgari surgan, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarini fond birjasida sotishda emitent sof foydasining o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lishi sharti ijobiy moliyaviy natijaning mavjud bo'lishi bilan almashtirish amaliyotini joriy qilish bo'yicha tavsiyalar bergan hamda aksiyadorlik jamiyatlari umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi majlislarida aksiyadorlarning shaxsini aniqlash va axborot xavfsizligini ta'minlagan holda masofadan turib elektron ovoz berish tartibi asoslagan [10].

Fond bozori aktivlarini baholash orqali mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori institutlarini rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan X. Xudoyqulovning ilmiy ishlarida fond bozoridagi aksiyalarning bozor bahosini yanada aniqroq belgilashga imkon yaratuvchi har bir aksiyani birja savdosida bitta lot shaklida sotishning samarali usul ekanligi asoslangan, fond bozorida ishtirok etadigan aksiyadorlik jamiyatlari emission xarajatlarining sezilarli darajada qisqartirilishiga ta'sir ko'rsatuvchi korporativ obligatsiyalar emissiyasining soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqilgan, o'rta muddatli g'azna majburiyatlarini birjadagi savdosining amaldagi tartibiga ular to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar hamda emissiya qilish parametrlarini birja orqali e'lon qilish tartibini kiritish orqali mazkur mexanizmni takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan [11].

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Sh. Sultonov esa o'z ilmiy ishlarida, AJlari o'rtasida teng raqobat muhitini yaratish maqsadida, davlat ulushi bor korxonalar sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan qismini davlat budjetiga o'tkazishni amaliyotga joriy qilishni taklif etgan, davlat va xo'jalik birlashmalari ulushi mavjud bo'lgan AJlari aksiyalar paketlarini birlamchi va ikkilamchi ommaviy taklif (IPO va SPO) orqali sotish asosida fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqeini hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyatlari asoslagan, strategik ahamiyatga ega yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish natijasida yirik investitsiyalar talab qiladigan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va budjet daromadlarini oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan [12].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko'rib o'tilgan respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorining savdo tizimlari faoliyati, ularni rivojlantirish, fond bozori orqali investitsiyaviy faollikni oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish orqali uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida ularning faolligini yanada oshirish kabi muhim masalalar o'rin olganligini ko'rib chiqdik. Ushbu ilmiy ishlarda uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori va uning yaxlit tuzilmasi sifatida fond birjalari, shu jumladan, "Toshkent" respublika fond birjasi (RFB) faoliyatining xususiy tahlili, mamlakatimizda uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori tartibida elektron savdo tizimlari, valyuta birjalarining fond bo'limlari faoliyati yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababdan, bugungi kunda kapital bozorini rivojlantirishga bo'lgan talabning yuqoriligi, uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorining muhim institutsional tuzilmasi sifatida "Toshkent" RFB faoliyatidagi muammoli masalalarni xal qilish orqali uyushgan qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish dolzarb.

Bizningcha, “uyushgan qimmatli qog‘ozlar bozori – bu barcha ishtirokchilarga teng sharoitlar yaratib, talab va taklif asosida obyektiv narx shakllanishini ta’minlovchi, yuqori darajada tashkillashgan hamda o‘zining institutsional infratuzilmasiga ega bo‘lgan moliyaviy vositalar savdo maydonlarining yaxlit tuzilmasi hisoblanadi”. Mazkur bozorda savdo bitimlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarda savdo tashkilotlari tomonidan oldindan belgilangan tadbirlar va tegishli qoidalarga bozorning professional ishtirokchilari tomonidan qat’iy rioya etilishi talab etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. I.L.Butikov. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik. – Toshkent: Konsauditform, 2001-yil. 289-b.
2. Y. Nobuyoshi. Commodity Etfs in The Japanese Stock Exchanges. Journal of Advanced Studies in Finance, ISSN 2068-8393 https://journals.aserspublishing.eu/jasf/article/view/45. Issue Vol 2 No 1 (2019): JASF Volume II Issue 1(3) Summer 2019
3. Y.Nishimura, Y.Tsutsui. Do international investors cause stock market spillovers? Comparing responses of cross-listed stocks between accessible and inaccessible market. Economic Modelling, Volume 69, January 2018, Pages 237-248.
4. B.Nejla.Book-to-market equity and size as determinants of returns: evidence from the tunisian stock exchange. Современнаяэкономика: проблемы, тенденции, перспективы, № 8, 2013. p 45.University of Manouba, ESC (High School of Business), (Tunisia).
5. Yu Hsing. Impacts of Financial Stock Prices and Exchange Rates on the Demand for Money in Poland.South East European Journal of Economics and Business. Volume 2 issue 1 04 Mar 2008 . University Hammond, USA
6. D.Stauffer, D.Sornette.Self-organized percolation model for stock market fluctuations.Physica A: Statistical Mechanics and its Applications. Volume 271, Issues 3–4, 15 September 1999, Pages 496-506.
7. Ш.Ш.Шохаъзамий. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга I, II. Т., “Iqtisod-moliya”, 2005. 321-б.
8. Muxamedov F.T. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dokt. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. 11-b.
9. Xalikov U.R. O‘zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 8-9-b.
10. Xo‘jamurodov A.J. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 8-10-b.
11. Xudoyqulov X.X. Fond bozori aktivlarini baholash mexanizmini takomillashtirish: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. –8-9-b.
12. Sultonov Sh.N. O‘zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo‘llari: Iqt. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. 9-10-b.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.